Markaziy Osiyo tarixi rasmiy hujjatlarda

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti tomonidan “Markaziy Osiyo tarixi rasmiy hujjatlarda” nomli to’plam nashr etildi. Mazkur to’plam bajarilgan “O’zbekistonning o’rta asrlar tarixi rasmiy hujjatlarda: muammoli jihatlar, talqin va tahlil (VII – XIX asr birinchi yarmi)” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida nashr etildi.

To’plamda taqdim etilgan maqolalarda ilk o’rta asrlarga doir so’g’d hujjatlaridan tortib, so’nggi o’rta asrlarda o’zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-harbiy holati hamda diplomatik aloqalari, hujjat yuritish masalalari, shuningdek, XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy

o’zgarishlarga doir arxiv hujjatlari tahlil etilib, qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.